



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

4 (78) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

4 (78)

2025

апрель

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.03.2025, Accepted: 06.04.2025, Published: 10.04.2025

UQK 616.89-008.441.13

ALKOGOLGA QARAMLIKDA EKZOGEN OMILLAR XUSUSAN COVID-19 PANDEMIYASI SABABLI RIVOJLANGAN KOGNITIV BUZILISHLARNI TASHXISLASH VA SAMARALI REABILITATSIYA USULLARI

¹Turayev Bobir Temirpulotovich <https://orcid.org/0000-0003-4748-5327>

E-mail: bobir.turaev.89@mail.ru

²Hamidov Obid Abduraxmanovich <https://orcid.org/0000-0002-6253-2390>

E-mail: oxamidov@gmail.com

³Sultonov Shoxrux Xabibullaevich <https://orcid.org/0000-0003-2322-5272>

¹Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, O'zbekiston, Samarqand, Amir Temur 18. Tel: +99866 233-08-41 E-mail: sammi@sammi.uz

²Reabilitologiya va sport tibbiyoti ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand, O'zbekiston.

³Toshkent davlat stomatologiya instituti, O'zbekiston, Toshkent, 103, Taraqqiyot ko'chasi, Toshkent .sh Tel: +998(71) 230-20-65

E-mail: tdsi2016@mail.ru

✓ *Rezyume*

Ekzogen omillarning alkogolizm va kognitiv buzilishlarga ta'siri jumladan, ekologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, stress, depressiya va boshqa psixologik holatlarning alkogolga qaramlik va kognitiv buzilishlar rivojlanishiga ta'siri haqida ma'lumotlar mavjud. Ekzogen omil sifatida Covid-19 pandemiyasi alkogol mahsulotlari suistemoliga jiddiy ta'sir ko'rsatgani ko'plab adabiyotlarda yoritilgan, lekin alkogolga qaramlik sindromi mavjud bemorlarda pandemiyaning ta'siri va Covid-19 infeksiyasi bilan kasallanishdan keyin kognitiv buzilishlarni o'rganilganda e'tibor yoki diqqat yetishmovchiligi (72%), qisqa muddatli xotira pasayishi (64%) va ijro funksiyalari buzilishi (58%) kabi buzilishlar nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, depressiv simptomlar (60%), tashvish buzilishlari (65%) va uyqusizlik hamda vegetativ simptomlar (70%) asosiy guruhda ancha yuqori bo'lib, bu COVID-19 infeksiyasining asab tizimiga bevosita va bilvosita ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Alkogolga qaramlik, ekzogen omillar, COVID-19 pandemiyasi, kognitiv buzilishlar, tashxislash, reabilitatsiya

ДИАГНОСТИКА И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РЕАБИЛИТАЦИИ КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ, ВЫЗВАННЫХ ЭКЗОГЕННЫМИ ФАКТОРАМИ, В ЧАСТНОСТИ ПАНДЕМИЕЙ COVID-19, ПРИ АЛКОГОЛЬНОЙ ЗАВИСИМОСТИ

¹Тураев Бобир Темирпулотович <https://orcid.org/0000-0003-4748-5327>

E-mail: bobir.turaev.89@mail.ru

²Хамидов Обид Абдурахманович <https://orcid.org/0000-0002-6253-2390>

³Султанов Шохрух Хабибуллаевич <https://orcid.org/0000-0003-2322-5272>

¹ Самаркандский государственный медицинский университет, Узбекистан, г. Самарканд, ул. Амира Темура, 18. тел: +99866 233-08-41, E-mail: sammi@sammi.uz

² НИИ Реабилитологии и спортивной медицины, Самарканд, Узбекистан.

³ Ташкентский государственный стоматологический институт, Узбекистан, г. Ташкент, ул. Таракийёт, 103. Тел: +998(71) 230-20-65, E-mail: tdsi2016@mail.ru

✓ *Резюме*

Влияние экзогенных факторов на алкоголизм и когнитивные нарушения, включая экологические факторы, социально-экономические условия, стресс, депрессию и другие психологические состояния, оказывающие воздействие на развитие алкогольной

зависимости и когнитивных нарушений, широко освещено в литературе. Пандемия COVID-19, как экзогенный фактор, оказала значительное влияние на злоупотребление алкогольными напитками, что подтверждается многочисленными исследованиями. Однако влияние пандемии на пациентов с алкогольной зависимостью и когнитивные нарушения после перенесенной инфекции COVID-19 изучены недостаточно.

При анализе когнитивных нарушений у пациентов с алкогольной зависимостью, перенесших COVID-19, выявлено, что дефицит внимания или концентрации наблюдается в 72% случаев, снижение кратковременной памяти – в 64%, нарушение исполнительных функций – в 58%, что значительно превышает показатели контрольной группы. Кроме того, в основной группе пациентов отмечена более высокая частота депрессивных симптомов (60%), тревожных расстройств (65%), нарушений сна и вегетативных симптомов (70%). Это может быть связано как с прямым, так и с опосредованным влиянием инфекции COVID-19 на нервную систему.

Ключевые слова: алкогольная зависимость, экзогенные факторы, пандемия COVID-19, когнитивные нарушения, диагностика, реабилитация.

DIAGNOSIS AND EFFECTIVE REHABILITATION METHODS FOR COGNITIVE IMPAIRMENTS CAUSED BY EXOGENOUS FACTORS, PARTICULARLY THE COVID-19 PANDEMIC, IN ALCOHOL DEPENDENCE

¹Turaev Bobit Temirpulotovich <https://orcid.org/0000-0003-4748-5327>

E-mail: bobir.turaev.89@mail.ru

²Hamidov Obid Abdurakhmanovich <https://orcid.org/0000-0002-6253-2390>

³Sultonov Shoxrux Xabibullaevich <https://orcid.org/0000-0003-2322-5272>

¹ Samarkand State Medical University, Uzbekistan, Samarkand, Amir Temur Street, 18.

Tel: +99866 233-08-41, E-mail: sammi@sammi.uz

² Research Institute of Rehabilitation and Sports Medicine, Samarkand, Uzbekistan.

³ Tashkent State Dental Institute, Uzbekistan, Tashkent, Taraqqiyot Street, 103.

Tel: +998(71) 230-20-65, E-mail: tdsi2016@mail.ru

✓ *Resume*

The impact of exogenous factors on alcoholism and cognitive impairments, including environmental factors, socio-economic conditions, stress, depression, and other psychological conditions affecting the development of alcohol dependence and cognitive disorders, is well-documented in the literature. The COVID-19 pandemic, as an exogenous factor, has significantly influenced alcohol abuse, as highlighted in numerous studies. However, the impact of the pandemic on patients with alcohol dependence and cognitive impairments following COVID-19 infection has not been sufficiently studied.

An analysis of cognitive impairments in patients with alcohol dependence who had COVID-19 revealed that attention or concentration deficits were observed in 72% of cases, short-term memory decline in 64%, and executive function impairments in 58%, which were significantly higher than in the control group. Additionally, depressive symptoms (60%), anxiety disorders (65%), insomnia, and vegetative symptoms (70%) were significantly more prevalent in the primary group. This may be related to both the direct and indirect effects of COVID-19 infection on the nervous system.

Keywords: alcohol dependence, exogenous factors, COVID-19 pandemic, cognitive impairments, diagnosis, rehabilitation.

Dolzarbligi

Алкоголизмнинг shakllanishi va kechishi, shuningdek, COVID-19 kasalligini boshidan kechirgan bemorlarda alkoholga qaramlik sindromi bilan bog'liq ruhiy, somatik va psixopatologik o'zgarishlarni ilmiy asoslash bo'yicha hali ko'plab muammolar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, COVID-19 pandemiyasi davrida spirtli ichimliklarni iste'mol qilish odatlari sezilarli darajada o'zgarib, bu ko'plab somatik va ruhiy kasalliklarning rivojlanishi hamda ularning klinik ko'rinishlarining

og'irlashishiga sabab bo'lgan. Xususan, pandemiya sharoitida ruhiy tushkunlikning kuchayishi va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish holatlarining ortishi kuzatilgan.

O'z-o'zini davolash nazariyalariga ko'ra, pandemiya davrida yuzaga kelgan ijtimoiy va ekologik cheklavlar, shuningdek, ruhiy bosimning oshishi depressiyani yengish maqsadida spirtli ichimliklarga murojaat qilish ehtimolini oshirgan. Stress nafaqat sog'lom insonlarda, balki alkogolga qaram shaxslarda ham spirtli ichimliklarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiruvchi asosiy xavf omili hisoblanadi. Ayniqsa, impulsiv xatti-harakatlarga moyil bo'lgan shaxslar spirtli ichimliklarni ko'proq iste'mol qilishga moyil bo'lishadi.

Stress fiziologik parametrlarning o'zgarishiga va noto'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatining pasayishiga olib kelib, natijada spirtli ichimliklarni iste'mol qilish xavfini oshiradi. Ushbu jarayon spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilishga o'tish uchun erta bashorat qiluvchi omil sifatida qaralishi mumkin. Stressning uzoq muddatli ta'siri esa spirtli ichimliklarga qaramlikning shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. Shuningdek, surunkali spirtli ichimliklarni iste'mol qilish organizmda stressga nisbatan moslashuvchanlik buzilishiga va psixologik dezadaptatsiyalarga olib keladi.

COVID-19 pandemiyasi spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish darajasining keskin ortishiga, qaytalanish holatlarining ko'payishiga va xavf guruhidagi insonlarda alkogol iste'moli bilan bog'liq buzilishlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, ekzogen omillarning alkogolizm fonida kognitiv buzilishlarning rivojlanishiga ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, stress, depressiya va xavotir kabi omillarning alkogolga qaramlik va kognitiv buzilishlar bilan bog'liqligi hali to'liq o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: Alkogolga qaramlik, ekzogen omillar va COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq kognitiv buzilishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda ularni samarali tashxislash va reabilitatsiya usullarini takomillashtirish.

Material va usullari

Alkogolga qaramlik mavjud bo'lgan bemorlarda ekzogen omil siftida COVID-19 infeksiyasi o'tkazgan va o'tkazmagan bemorlarda anamnestik, klinik-psixopatologik usullar, kognitiv funksiyalarni baholash uchun maxsus testlar qo'llanildi. Tekshiriluvchilarda xotirani baholash uchun Ebbingauz usuli, Fikrlash qobiliyatini tekshirish «Ortiqchasini chiqarib tashlash» usuli, MMSE (Mini-Mental State Examination) – Kichik kognitiv buzilishlar va demensiyaning baholash testi, Spilberger-Xanin so'rovnomasi, Depressiv buzilish tarqalish uchun Bek shkalasi, "Alkogol iste'molini to'xtatish holatlarini baholash shkalasi", CIWA-Ar - Clinical Institute Withdrawal Assessment for Alcohol (CIWA-Ar). Diqqatni tekshirish uchun Shulte jadvalidan foydalanildi.

Tadqiqot 2020-2024 yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining narkologiya xizmati bo'yicha Samarqand viloyati filiali shifoxonasi bazasida alkogolga qaramlik (alkogolizm) 2 bosqich bilan davolanuvchi 140 nafar bemor tanlab olindi. Asosiy guruhga 80 nafar COVID-19 kasalligini boshidan o'tkazgan bemorlar va nazorat guruhi alkogolizm bilan kasallangan lekin anamnezidan COVID-19 kasalligi bilan kasallanmagan 60 nafar bemorlar tanlab olindi.

Natija va tahlillari

MMSE (Mini-Mental State Examination) – Kichik kognitiv buzilishlar va demensiyaning baholash testi natijasiga ko'ra e'tibor yetishmovchiligi 1-guruhda 72% bemorda kuzatilgan bo'lsa, 2-guruhda bu ko'rsatkich 55% ni tashkil etdi. Qisqa muddatli xotira pasayishi 1-guruh bemorlarining 64% ida kuzatildi, 2-guruhda esa bu ko'rsatkich 49% ni tashkil etdi. Ijro funksiyalari buzilishi 1-guruh bemorlarining 58% ida qayd etildi, 2-guruhda esa bu ko'rsatkich 43% bo'ldi. Verbal xotira buzilishi 1-guruh bemorlarining 54% ida uchragan bo'lsa, 2-guruhda bu ko'rsatkich 39% ni tashkil etdi.

Psixopatologik buzilishlar bo'yicha taqqoslash natijalariga ko'ra, Xavotirli buzilish holati 1-guruh bemorlarining 65% ida kuzatilgan bo'lsa, 2-guruhda bu ko'rsatkich 48% ni tashkil etdi. Depressiv simptomlar 1-guruh bemorlarining 60% ida qayd etilgan bo'lsa, 2-guruhda 45% ni tashkil etdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, COVID-19 infeksiyasini boshidan kechirgan bemorlarda tashvish va depressiv simptomlar ancha yuqori bo'lib, bu ularning psixologik holatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir qilgan. Ushbu simptomlarning ortishi pandemiya davrida yuzaga kelgan stress, ijtimoiy izolyatsiya, kasallikning o'zi keltirib chiqargan nevropsixologik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin 1-jadval.

Kognitiv buzilishlar va psixopatologik holatning taqqoslanishi

Ko'rsatkichlar	Asosiy guruh (n=80)	Nazorat guruh (n=60)	P-qiyamat
E'tibor yetishmovchiligi	58 (72%)	33 (55%)	<0,05
Qisqa muddatli xotira pasayishi	51 (64%)	29 (49%)	<0,05
Ijro funksiyalari buzilishi	46 (58%)	26 (43%)	<0,05
Verbal xotira buzilishi	43 (54%)	23 (39%)	<0,05
Tashvish holati	52 (65%)	29 (48%)	<0,05
Depressiv simptomlar	48 (60%)	27 (45%)	<0,05


Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, COVID-19 infeksiyasini boshidan kechirgan bemorlarda e'tibor yetishmovchiligi, qisqa muddatli xotiraning pasayishi hamda tashvish buzilishlari sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatildi.

Tadqiqotimiz davomida bemorlarning fikrlash qobiliyatini baholash maqsadida «Ortiqchasini chiqarib tashlash» usulidan foydalanildi va ushbu usul yordamida fikrlash buzilishlarining tarqalish darajasi aniqlab chiqildi.

Shifoxonada davolanishning 2-kuni asosiy guruh bemorlarida o'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, 18 nafar (22,5%) bemorning fikrlash qobiliyati yaxshi deb baholangan. Shuningdek, 42 nafar (52,5%) bemorda fikrlash qobiliyati qoniqarli, 20 nafar (25,0%) bemorda esa fikrlash darajasi pastligi aniqlangan.

Nazorat guruhida davolanishning 2-kuni o'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, 16 nafar (26,67%) bemorda fikrlash qobiliyati yaxshi, 38 nafar (63,33%) bemorda qoniqarli va 6 nafar (10,0%) bemorda esa fikrlash darajasi past ekanligi qayd etildi (1-diagramma).

1- diagramma

Asosiy va nazorat guruhi bemorlarida fikrlash buzilishining tarqalishi

Anamnezida COVID-19 infeksiyasini boshidan kechirgan va alkogolga qaramlik sindromi mavjud bemorlarda fikrlash buzilishlari, COVID-19 bilan kasallanmagan bemorlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi yuqoridagi diagrammada ko'rsatilgan. Bunga sabab sifatida alkogol parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan toksik oraliq mahsulotlarning miya to'qimalariga zararli ta'siri, surunkali gipoksiya, nafas yetishmovchiligi oqibatida kislorod yetishmovchiligi va buning natijasida metabolik jarayonlar hamda energiya almashinuvining buzilishi ko'rsatildi.


Tadqiqotimiz davomida bemorlardagi xotira buzilishlarini aniqlash uchun 10 ta so'z yodlash usulidan foydalanildi va ushbu usul natijalariga qarab xotira buzilishlarining darajasi baholandi. Asosiy guruhda shifoxonaga kelgan 2-kuni o'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, 6 nafar (7,5%) bemorda xotira buzilishi aniqlanmay, xotira yaxshi deb baholandi. Shu bilan birga, 27 nafar (33,75%) bemorda xotira biroz susaygan, 47 nafar (58,75%) bemorda esa xotira ancha sustligi kuzatildi.

Nazorat guruhida davolanishning 2-kuni o'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, 7 nafar (11,67%) bemorda xotira buzilishi kuzatilmagan, 25 nafar (41,67%) bemorda xotira biroz susaygan, 28 nafar (46,67%) bemorda esa xotira ancha sustligi qayd etilgan.

Kognitiv buzilishlarni aniqlash uchun bemorlarning diqqat holati ham baholandi. Bu maqsadda Shulte jadvalidan foydalanildi. Tekshirish natijalariga ko'ra, 30-39 soniya ichida barcha raqamlarni ketma-ket topgan va diqqat buzilishi kuzatilmagan bemorlar asosiy guruhda 6 nafar (7,5%), nazorat guruhida esa 8 nafar (13,34%) ni tashkil etdi. Diqqat sustligi o'rtacha bo'lgan bemorlar, ya'ni topshiriqni bajarish uchun 41-49 soniya sarflaganlar asosiy guruhda 13 nafar (16,25%), nazorat guruhida esa 17 nafar (28,33%) bo'ldi. Diqqati past bo'lgan bemorlar (50-59 soniya vaqt sarflaganlar) asosiy guruhda 26 nafar (32,5%), nazorat guruhida esa 18 nafar (30,0%) ni tashkil etdi. Diqqatning o'ta past darajasi kuzatilgan, ya'ni topshiriqni bajarish uchun 1 daqiqadan ortiq vaqt sarflagan bemorlar esa asosiy guruhda 35 nafar (43,75%), nazorat guruhida esa 17 nafar (28,33%) bo'ldi.

2- diagramma

Asosiy va nazorat guruhi bemorlarida xotira buzilishining tarqalishi




Yuqoridagi diagrammadan kelib chiqib aytish mumkinki, alkogolga qaramlik sindromi va anamnezida COVID-19 infeksiyasini boshidan kechirgan bemorlarda xotira buzilishlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bunga sabab sifatida alkogol parchalanishidan hosil bo'ladigan toksik moddalarning zararli ta'siri, bosh miya surunkali gipoksiyasi, nafas yetishmovchiligi tufayli kislorod darajasining pasayishi va miya to'qimalarining kislorod bilan yetarlicha ta'minlanmasligi natijasida metabolik jarayonlar va energiya almashinuvining buzilishi, shuningdek, sitokin bo'roni va uzoq muddatli stress xotira buzilishlarini kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu patologiyalarni davolash uzoq muddat talab qilishi va samaradorligi past bo'lishi mumkin.

Zamonaviy adabiyotlarda qayd etilishicha, COVID-19 infeksiyasini boshidan kechirgan bemorlarda kognitiv buzilishlar kuzatiladi va ular uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Alkogolizm ham asosiy psixopatologik muammolardan biri kognitiv buzilishlar hisoblanadi. Ushbu ikki holat birgalikda kechganida kognitiv funksiyalarning yomonlashishi yanada kuchayishi va uzoq davom etishi taxmin qilinadi.

Spilberger-Xanin so'rovnomasi asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, xavotirli buzilishlar kasallikning rivojlanishida muhim omil bo'lib, uning ko'plab sabablarini aniqlash mumkin. Ushbu omillar kasallikning og'irroq kechishiga va tezroq rivojlanishiga olib kelishi ehtimoli yuqori.

Biz tadqiqotimiz davomida tanlab ilgan asosiy va nazorat guruhi bemorlarida xavotirli buzilish tarqalishini aniqlash uchun Spilberger-Xanin so'rovnomasidan foydalandik. Tadqiqot uchun davolanishning 2-kuni bemorlarda xavotir tarqalishi aniqlandi.

Spilberger-Xanin so'rovnomasi bo'yicha xavotir buzilishlarning guruhlarda tarqalishi



Tekshirish natijalari shuni ko'rsatdiki, asosiy guruh bemorlarida turli darajadagi xavotirli buzilishlar mavjud. Xususan, davolanishning 2-kuni o'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra, 15 nafar bemorda (18,75%) yengil darajadagi, 35 nafar bemorda (43,75%) o'rtacha og'irlikdagi va 30 nafar bemorda (37,5%) og'ir darajadagi xavotir aniqlangan. Nazorat guruhi bemorlarida ham shunga o'xshash ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, 13 nafar bemorda (21,67%) yengil, 32 nafar bemorda (53,33%) o'rtacha og'irlikdagi va 15 nafar bemorda (25,0%) og'ir xavotirli buzilish aniqlangan.

Alkogolga qaramlik natijasida rivojlanadigan depressiya alkogolizm bilan og'irgan bemorlarda uchraydigan affektiv buzilish bo'lib, odatda 2 haftadan 1 oygacha davom etadi. Uning eng kuchli namoyon bo'lishi abstinensiya sindromi bosqichida kuzatiladi. Ushbu holatda bemor kayfiyatning tushkunligi, aybdorlik hissi, fikrlash va harakat sekinlashishi, hatto o'z joniga qasd qilish fikrlari yoki harakatlari bilan ajralib turadi. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda depressiyaning umumiy tarqalishi 45-70% holatlarda kuzatiladi va infeksiyadan keyin depressiya tez-tez uchraydi. Ushbu ruhiy buzilishning rivojlanishiga biologik, psixologik va ekologik omillar ta'sir qilishi mumkin. COVID-19 dan tuzalgan bemorlarda depressiya kasalxonaga yotqizilgandan so'ng, pandemiya davridagi stress yoki post-COVID sindromining namoyon bo'lishi sifatida paydo bo'lishi mumkin.

Tadqiqotimiz davomida asosiy va nazorat guruhi bemorlarida depressiv buzilishlarning tarqalishini baholash maqsadida davolanishning ikkinchi kunida Bek depressiya shkalasi asosida tekshiruv o'tkazildi. Shuningdek, abstinensiya sindromining kechishini asosiy va nazorat guruhlarida solishtirish uchun bemor shifoxonaga yotqizilgan ikkinchi kuni spirtli ichimliklarni olib tashlash holati shkalasi (CIWA-Ar) orqali baholandi. Tekshirilayotgan bemorlarning aksariyati shifoxonaga kelishidan oldin spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilgan bo'lib, abstinensiya sindromi klinik belgilari aniq namoyon bo'lishini inobatga olgan holda, CIWA-Ar shkalasi bo'yicha bemorlarning shifoxonaga yotqizilgan 3 va 7 kunlaridagi ko'rsatkichlari taqqoslandi.

Spirtli ichimliklarni olib tashlash sindromining og'irligiga qarab bemorlarning tarqalishi 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, COVID-19 infeksiyasini boshidan kechirgan alkogolga qaram bemorlarda kognitiv va psixopatologik buzilishlar yanada kuchaygan. Ayniqsa, ushbu bemorlarda e'tibor yetishmovchiligi (72%), qisqa muddatli xotira pasayishi (64%) hamda ijro funksiyalarining buzilishi (58%) nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, depressiv simptomlar (60%), tashvish buzilishlari (65%) hamda uyqu buzilishi va vegetativ simptomlar (70%) asosiy guruhda sezilarli darajada ko'p kuzatilgan bo'lib, bu COVID-19 infeksiyasining markaziy asab tizimiga bevosita va bilvosita ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, alkogolga qaramlik va COVID-19 infeksiyasining birgalikdagi ta'siri bemorlarning nevropsixologik holatini yanada og'irlashtirib, ularni davolash va rehabilitatsiya qilishda kompleks

yondashuv – psixoterapiya, farmakoterapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish muhimligini ta’kidlaydi.

2-jadval

Covid-19 bilan kasallanishning abstinensiya sindromining og‘irligiga ta’siri

Abstinensiya sindromining og‘irligi	Asosiy guruh		Nazorat guruh		Jami		P
	aбс.	%	aбс.	%	aбс.	%	
Yengil abstinensiya sindromi	-	-	-	-	-	-	
O‘rtacha og‘irlikdagi abstinensiya sindromi	35	43,75%	32	53,33%	67	47,86%	2,74
Og‘ir shakldagi abstinensiya sindromi	45	56,25%	28	46,67%	73	52,14%	2,48
Jami	80	100,0	60	100,0	140	100,0	

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, COVID-19 infeksiyasini boshidan kechirgan alkogolga qaram bemorlarda kognitiv va psixopatologik buzilishlar yanada kuchaygan. Ayniqsa, ushbu bemorlarda e’tibor yetishmovchiligi (72%), qisqa muddatli xotira pasayishi (64%) hamda ijro funksiyalarining buzilishi (58%) nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, depressiv simptomlar (60%), tashvish buzilishlari (65%) hamda uyqu buzilishi va vegetativ simptomlar (70%) asosiy guruhda sezilarli darajada ko‘p kuzatilgan bo‘lib, bu COVID-19 infeksiyasining markaziy asab tizimiga bevosita va bilvosita ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, alkogolga qaramlik va COVID-19 infeksiyasining birgalikdagi ta’siri bemorlarning nevropsixologik holatini yanada og‘irlashtirib, ularni davolash va reabilitatsiya qilishda kompleks yondashuv – psixoterapiya, farmakoterapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish muhimligini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Konstantinova O. et al. Experience in the use of thiamine (vitamin B1) megadose in the treatment of korsakov-type alcoholic encephalopathy // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D12. – C. 564-570.
2. Lomakin S. et al. Socio-demographic, personal and clinical characteristics of relatives of patients with alcoholism // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D12. – C. 278-283.
3. Novikov A. et al. Alcohol dependence and manifestation of autoaggressive behavior in patients of different types // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D11. – C. 413-419.
4. Ochilov U. et al. Factors of alcoholic delirium patomorphosis // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D12. – C. 223-229.
5. Sultanov S. et al. Changes in alcohol behavior during the covid-19 pandemic and beyond // Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D12. – C. 302-309.
6. Temirpulotovich T. B. Clinical Course of Alcoholic Polyneuropathy and Alcoholic Myopathy Observed in Alcoholism // Journal of Medical Genetics and Clinical Biology. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 34-41.
7. Temirpulotovich T. B. Clinical Pictures of Cognitive Dysfunctions Observed in Alcoholism // Journal of Medical Genetics and Clinical Biology. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 42-50.
8. Yazdi K. et al. Impact of the COVID-19 pandemic on patients with alcohol use disorder and associated risk factors for relapse // Frontiers in Psychiatry. – 2020. – T. 11. – C. 620612.

Qabul qilingan sana 20.03.2024